

**RESPUBLIKA “TADBIRKOR AYOL” UYUSHMASINING AYOLLAR
TADBIRKORLIGINI RIVOLANTIRISHDAGI ROLI.**

Qanoatova Feruza Bobokulovna

Shaxrisabz DPI dosenti

email: fkanoatova@yandex.ru

Annotatsiya

Maqolada “Tadbirkor ayol” Respublika uyushmasining xotin-qizlar tadbirkorligini oshirish, xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, ayollar tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish borasida olib borayotgan ishlari hamda mamlakatimiz iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini yuksaltirishga qo‘shayotgan beqiyos hissasi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, biznes, moliyalashtirish, nodavlat tashkilotlari, uyushma, xotin-qizlar tadbirkorligi.

Respublika “Tadbirkor ayol” uyushmasi va uning hududiy bo‘limlari tomonidan ayollarni ish bilan ta’minalash borasida amalga oshirilgan ishlar tahsinga loyiqidir. Uyushmaning asosiy funksiyasi “Ayollarning iqtisodiy, ijtimoiy huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish hamda himoyalash, ularning tadbirkorlik va jamoat tashabbuslarini qo‘llab quvvatlash, moliyaviy, ta’lim axborot resurslaridan foydalanishini ta’minalashga ko‘maklashishdir. 1991-2021 yillar davomida "Tadbirkor ayol" O‘zbekiston ishbilarmon ayollar assosatsiyasi tomonidan qanchadan qancha ayollar kasbga qayta tayyorlandi va ishga joylashtirildi.

“Tadbirkor ayol” dasturi doirasida hududiy xotin - qizlar tadbirkorlik markazlari tomonidan 39 600 nafar ayollar tikuvchilik, pazandachilik, tadbirkorlik ko‘nikmalari kabi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘quv kurslarida o‘qitildi. 26 247 nafar xotin - qizlar kasbga o‘qitish markazlarida kasbga tayyorlandi. 17 448 nafar xotin-qizlar hunarmandchilik, 12 101 nafari kasanachilik sohalariga jalb etildi. 4 873 nafar xotin-qizlar mahallalardagi tajribali usta-hunarmandlarga biriktirildi va kasb - hunarga o‘rgatildi.

Xotin-qizlar qo‘mitasining korxona va tashkilotlar bilan maxsus kvotalar bo‘yicha kelishuvlar asosida ijtimoiy himoyaga muhtoj va ko‘p bolali ayollarning bandligi ta‘minlangan. Qo‘mita tashabbusi bilan 2018 yilda mahallalardagi bo‘sh joylarda tashkil etilgan sexlarda 131 ming nafardan ortiq ayol ishlab chiqarishga jalb etilgan[1]. Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazi “Aholi bandligini ta‘minlash” Davlat dasturiga muvofiq, 2018 yil yakuniga ko‘ra, Toshkent shahri bo‘yicha 2015 nafar xotin-qizlar ishga joylashtirilgan[2].

2020-yilda 69 ming 877 nafar tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan xotin-qizlarning 19 ming 643 nafariga kreditlar berilgan bo'lib, faoliyatini to'xtatganlarni qo'llab-quvvatlash uchun xorijiy loyihalar ham jalb etildi. Xotin-qizlarni milliy hunarmandchilik kasblarga yo'naltirish maqsadida 4 ming 873 nafar ayol usta-hunarmandlarga biriktirilgan. O'tgan 2021-yilda 5,5 ming nafar ayolning kichik biznes loyihalari uchun imtiyozli kreditlar asosida 102 milliard so'm mablag' ajratilib, xotin-qizlar uchun 4 ming 364 ta yangi ish o'rini yaratilgan.

2021 yilda ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion so'm kredit va subsidiyalar ajratilib, 320 ming xotin-qiz doimiy ish o'rniga ega bo'ldi. 190 ming nafar ayol kasb-hunarga o'qitildi. 4 mingdan ziyod xotin-qizlarga uy-joy to'lovining boshlang'ich badaliga mablag' ajratildi.

O'zbekistonda ayollar uchun ham qonunchilikka muvofiq bir qator imtiyozlar yaratilgan. Jumladan, 2022 yilda xotin-qizlarga tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun 33 million so'mgacha kreditlar ajratiladi. "YOshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish dasturlarini samarali amalga oshirish hamda ularning tadbirkorlik faoliyati uchun mikrokreditlar ajratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Hukumat qarori bilan Tadbirkorlik tashabbusiga ega jismoniy shaxslar, shu jumladan, yoshlar va xotin-qizlarga mikrokreditlar ajratish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlangandi.

Xotin-qizlar qo'mitasi va "Tadbirkor ayol" uyushmasi tomonidan har yili o'tkazilib kelinayotgan "Anor-2019" ko'rik - tanlovining navbatdagi Farg'ona viloyat bosqichida O'zbekiston tumanidan tadbirkor ayol hamda "Manzurabonu" MTM mudirasi Tuganova Barno ishtirok etib, xizmat ko'rsatish naminatsiyasi bo'yicha viloyatdan respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

2021 yilda "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi 30 yoshga to'ldi. Yubiley munosabati bilan "Tadbirkor ayol" assotsiatsiyasi 19 noyabr – Butunjahon tadbirkor ayollar kuniga bag'ishlangan yirik ma'rifiy aksiyani o'tkazdi. 2021 yilning 16 - 21 noyabr kunlari mamlakatimizda bo'lib o'tayotgan "Ayollar tadbirkorligi haftaligi" tadbirkorlik g'oyalarini amalga oshirish istagida bo'lgan ayollar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

2021 yilga kelib uyushmaning 17 mingga yaqin a'zosi, 73 ta hududiy bo'limi, 200 dan ortiq trenerlari mavjud. Assotsiatsiya tomonidan o'tgan 9 oy davomida mamlakatimizning eng chekka hududlarida 10 ming nafardan ziyod ayollar tadbirkorlik asoslari bo'yicha treninglarda ishtirok etdi. 9 mingdan ortiq ayol ish bilan ta'minlandi. Assotsiatsiya ko'magida 1 ming 547 nafar ayol 22 milliard 700 mln so'm miqdorida kredit oldi. Loyihalar doirasida grant egalariga kreativ biznes - rejalarini amalga oshirish uchun 154 ming AQSH dollari ajratildi[3].

Global indeksda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston 62-o'rinni egalladi. "Tadbirkor ayol" xalqaro ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi

O‘zbekistonda birinchi bo‘lib ayollar biznesining istiqbollarini o‘lchash bo‘yicha ayollar tadbirkorligining Global indeksini joriy etish tashabbusi bilan chiqdi. Xulosa qilib aytganda, “Tadbirkor ayollar” uyushmasi tadbirkorlik faoliyatini boshlagan xotin-qizlarga mahsulot va xizmatlarni bozorga olib chiqish bilan bog‘liq barcha to‘sislarni bartaraf etish, tadbirkorlik faoliyatini to‘xtatgan xotin-qizlarga o‘z faoliyatini qayta boshlashida ko‘mak berish, ularning tadbirkorlik hamda biznes faoliyati bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni olib borish, shuningdek, qishloq joylarida vaqtinchalik ishsiz ayollarni tadbirkorlikka yo‘naltirish kabi ishlardagi faoliyati orqali yildan - yilga mamlakatimizda tadbirkorlik va biznesda xotin-qizlar ulushining ortishiga xizmat qilmoqda.

Adaboyotlar

1. O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi joriy arxivi. 2018 yil ma’lumotlari
2. Toshkent shahar xotin-qizlar qo‘mitasining VI hisobot saylov konferensiyasidagi ma’ruza.–T., 2018.- B.30
3. “Ayollar tadbirkorligi haftaligi - 2023” - <https://uza.uz>.
4. Shavkat o‘g’li N. X. YOSHLARDA MA’NAVIY-MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA INTERNETNING ROLI //PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL. – 2022. – №. 3 (18).
5. Shavkat o‘g’li N. X. THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 22. – C. 229-231.
6. Shavkat o‘g’li N. X. AXBOROT XURUJINING O ‘SMIRLAR HAYOTIGA TA’SIRI //QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – C. 1285-1287.
7. Shavkat o‘g’li N. X. YUKSAK AXBOROT MADANIYATI-INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI //Research Focus International Scientific Journal. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 105-110.
8. Shavkat o‘g’li N. X. ИНТЕРНЕТ-МАКОН ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШДА АХЛОКИЙ МАДАНИЯТНИНГ АҲАМИЯТИ //The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 4-9.
9. Nomozov X. INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI //Farg’ona davlat universiteti. – 2023. – №. 3. – С. 67-67.
10. Номозов X. ИНТЕРНЕТ-МАКОН ТАЪСИРИДА СОДИР БЎЛАЁТГАН НЕГАТИВ ИЖТИМОЙЛАШУВ ШАКЛЛАРИ //Философия и право. – 2023. – Т. 26. – №. 3. – С. 232-235.
11. Nomozov X. INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI //Development and innovations in science. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 8-14.